O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 8 - fevral 40-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 26 yanvardagi 32-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 26 yanvardagi “G‘ishtko‘prik” bojxona postini kengaytirish va qo‘shimcha bino-inshootlar qurilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi 32-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda Yer kodeksining 5-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 26 yanvardagi “G‘ishtko‘prik” bojxona postini kengaytirish va qo‘shimcha bino-inshootlar qurilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi 32-10-0-Q/24-sonli qarori** ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumani, G‘ishtko‘prik agrofirmasi massividagi 197q, 198q, 200q konturlarda joylashgan 1,81 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan davlat
zaxirasidagi yer maydoni Toshkent viloyati bojxona boshqarmasiga “G‘ishtko‘prik”
chegara bojxona postini kengaytirish va loyiha hujjatlari asosida qo‘shimcha binoinshootlar qurilishi uchun doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilsin.

3. Buyurtmachiga:

Davlat xizmatlari markazi orqali arxitektura rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqish uchun buyurtmalar berilsin, hamda loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash uchun
litsenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan o‘rnatilgan tartibda shartnoma tuzish;

Loyihalash uchun yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan
1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish uchun litsenziyaga ega korxonasiga buyurtma berish,

Davlat arxitektura va qurilish nazorati inspeksiyasiga xabarnoma yuborish;

Mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish yoki muhofaza hududini saqlab qolish ishlari o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi
inobatga olish vazifalari yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Toshkent tumani filiali (O.Xoldorov) mazkur qarorga muvofiq viloyat yer fondiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Tuman Qurilish va uy-joy kommunal bo‘limi (N.Bazarbaev)ga qurilish loyiha hujjatarini belgilangan tartibda rasmiylashtirilishiga amaliy yordam berish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**